

## YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyi haning turi. Shartnoma.
2. Loyi haning nomi. "Ob'ektni Texnik qo'riqlash markazi (TQM) orqali qo'riqlash" to'g'risida
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot.  
Shartnoma loyihasi Qorovulbozor tuman Xalq ta'limi bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan va markazga huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun 07.01.2022 yilda kiritilgan.  
Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Qorovulbozor tuman  
Yuridik xizmat ko'rsatish  
markazi bosh yuriskonsulti



A. Boltaev

2022 yil 07 yanvar.

**Ob'ektni Texnik qo'riqlash markazi (TQM) orqali  
qo'riqlash shartnomasi.**

4» 01 2022 yil.

1001/69 -son

Buxoro shaxri.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Buxoro viloyat Qo'riqlash boshqarmasi nomidan Nizomi asosida faoliyat yurituvchi, boshqarma boshlig'i **Sh.A.Jumayev** (keyingi o'rinlarda «**Ijrochi**» deb yuritiladai) bir tomondan, Qorovulbozor tuman Xalq ta'lim bo'limi mudiri D.Raxmatova (keyingi o'rinlarda «**Buyurtmachi**» deb yuritiladi) ikkinchi tomondan, birgalikda «**Tomonlar**» deb yuritiladi, mazkur Shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

**I bob. Shartnoma predmeti**

1. **Ijrochi** texnik qo'riqlash markazi (TQM), mulkini qo'riqlash xizmatini ko'rsatish majburiyatini, **Buyurtmachi** esa mazkur Shartnoma shartlariga asosan o'z vaqtida ko'rsatilgan xizmat uchun to'lovlarni amalga oshirish majburiyatini oladi.

**II bob. Umumiy shartlar**

2. **Buyurtmachi**, Qorovulbozor tuman Xalq ta'lim bo'limiga qarashli ob'ektlarini qo'riqlashga topshiradi, **Ijrochi** esa ushbu ob'ektni **Qorovulbozor tuman QB TQM** orqali quyidagi tartibda;

- 1,2,3,4,7,8-sonli maktablarni ish kunlari 5 soatdan (soat 09:00 dan 14:00 gacha) tashvish tugama, 1,7,8-maktablar ish va dam olish old kunlari 8 soatdan (soat 17:00 dan 01:00 gacha), 2-maktab har kuni 4 soatdan (soat 19:00 dan 23:00 gacha) TQM orqali qo'riqlash uchun qabul qiladi.

3. Ob'ektni texnik qo'riqlash vositalari bilan jihozlash va ta'mirlash **Buyurtmachi** tomonidan amalga oshiriladi. Ob'ektni yong'indan qo'riqlash va xavf-xatar signalizatsiyasi bilan jihozlash chizmasi mazkur Shartnomaga ilova qilinadi hamda uning ajralmas qismi hisoblanadi.

4. Ob'ektning texnik mustahkamligi to'g'risidagi, qo'riqlash va yong'indan ogohlantiruvchi texnik (QYoOT) vositalari bilan jihozlangan joylar, kod bilan mahkamlanadigan moslamalar va boshqa ma'lumotlar mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan ilova va tekshiruv dalolatnomasida ko'rsatiladi.

**III bob. To'lovlarni amalga oshirish.**

5. Mazkur Shartnoma asosida ko'rsatiladigan xizmatlar narxi belgilangan tariflarga mos holda quyidagicha hisoblanadi:

A) Shartnoma tuzilgan vaqtda belgilangan tariflarga mos holda bir oyda **1 800 000 (bir million sakkiz yuz ming)** so'mni. Shartnomaning 1- chorak uchun umumiy baxosi **5 400 000** (besh million to'rt yuz ming) so'mni tashkil qiladi. Qo'riqlash xizmati uchun hisob-kitoblar, mazkur shartnomaning grafigi asosida budjetdan va budjetdan tashqari ajratilgan mablag'lar asosida to'lanadi.

Yanvar	Fevral	Mart	April	May	Iyun	Iyul	Avqust	Sentabr	Oktabr	Noyabr	Dekabr	Jami 2022-yil 1-chorak uchun
1 800 000	1 800 000	1 800 000	.	.	.	.	.	.	.	.	.	5 400 000 so'm

5.1. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Budjet tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan shartnomalari majburiy tartibda G'aznachilikdan ro'yxatga olinishi shartligi va faqat ro'yxatga olingandan so'ng kuchga kirishi nazarda tutilgan, Shartnomani elektron shaklda onlayn ro'yxatdan o'tkazish «**Buyurtmachi**» ning zimmasiga yuklanib, tomonlar o'rtasida imzolaniib, 3 kun ichida elektron shaklda onlayn ro'yxatdan o'tkazilgach kuchga kiradi.

6. **Ijrochining** xizmatlari uchun to'lovlarga o'zgartirishlar kiritish, qonun hujjatlariga muvofiq ushbu xizmatlar turiga yangi tariflar tasdiqlangan hollarda qayta ko'rib chiqiladi.

7. **Buyurtmachi** ko'rsatilgan xizmatlar uchun oylik to'lovning **100 foizi miqdoridagi** avans to'lovini, keyingi oy boshlanishidan 10 kun oldin amalga oshiradi.

8. **Buyurtmachi** mazkur Shartnomaning 5-bandida ko'rsatilgan oylik to'lovni (avans to'lovini) o'z vaqtida to'lamasa, **Ijrochi, Buyurtmachiga** akseptsiz to'lov talabnomasini taqdim qilishga haqlidir.

9. Mazkur Shartnoma bekor qilinganda hamda har oying yakuni bilan, **Ijrochi Buyurtmachi** bilan olib borilgan to'lovlar bo'yicha, qayta hisob-kitobni amalga oshirishi zarur (ya'ni taqqoslash dalolatnomasi tuzilishi).

#### IV bob. Tomonlarning huquq va majburiyatlari.

##### 10. «Buyurtmachi» ning huquq va majburiyatlari.

- a) Ob'ektni TQM orqali qo'riqqa topshirish uchun, soz holdagi telefon tarmog'ini ajratadi.
- b) «Ijrochi»ga topshiriladigan ob'ektni texnik mustahkamligini ta'minlash maqsadida, tekshiruv dalolatnom bo'yicha uni me'yoriy talablar asosida jihozlaydi.
- v) Ob'ektni «Ijrochi»ga topshirish va qabul qilish, kalitlarni saqlash va ob'ektni ochib ko'zdan kechirish uchun javobgar shaxsni tayinlaydi.
- g) Ob'ektning kaliti yo'qolganida uni boshqasiga almashtirganida yoki uning butligi buzilganligini aniqlaganida, zudlik bilan «Ijrochi»ga xabar beradi.
- d) Begona shaxslarga qo'riqlash va signalizatsiya tizimini va pult raqamini o'zlashtirmasligi uchun ularni oshkor qilmaydi.
- y) qo'riqlash signalizatsiya vositalaridan foydalanish qoidalariga qat'iy rioya qiladi, ob'ektni blokirovka sxemasiga o'zgartirishlar kiritmaydi, o'z ixtiyori bilan signalizatsiya vositalarini almashtirmaydi, «ijrochi» ni yuzaga kelgan kamchiliklar yuzasidan o'z vaqtida xabardor qiladi.
- j) Ob'ektni «Ijrochi» ga topshirishdan oldin eshik, deraza, tuynuklarni mahkamlaydi, ularni doimiy ravishda soz holda saqlanishini ta'minlaydi.
- z) Ob'ektdagi QYOT vositalari ishdan chiqqanida yoki foydalanish muddati o'tganida ularni qayta ta'mirlash uchun, TQPni modernizatsiyalashtirilgan qo'riqlash sistemasiga o'tkazilishi munosabati bilan ob'ektni zamonaviy QYOT vositalari bilan almashtirish ishlarini o'z hisobidan amalga oshiradi.
- ij) QYOT vositalari ulangan elektr va telefon tarmoqlarini o'z vaqtida ta'mirlash choralari ko'radi.
- iv) Ob'ektni mazkur shartnomada ko'rsatilgan tartibda oldindan va o'z muddatida TQMkuzatuviga topshiradi.
- k) Qo'riqlanayotgan ob'ekt va uning perimetrini kerakli yoritish moslamalari bilan jihozlab, TQMnaryadlariga tungi paytda mumkin darajada ko'rinishni ta'minlaydi.
- l) Qo'riqlanadigan ob'ektni toifasiga qarab devori, tomi, derazalari va eshiklarini texnik jihatdan mustahkamligini ta'minlaydi.
- m) Qo'riqlanadigan ob'ektda yong'in xavfsizligi qoidalariga amal kilib, o'z xisobidan yongin xavfsizligi burchagini tashkil qiladi va ob'ektda yong'in xavfsizligi bo'yicha javobgar shaxs tayinlaydi.
- n) Har chorakda tomonlarning mas'ul vakillari ishtirokida ob'ektning texnik mustahkamligi, QYOT vositalari bilan jihozlanganligini tekshirilib, dalolatnoma tuziladi, tekshiruv jarayonida aniqlangan kamchiliklarni «Buyurtmachi» belgilangan muddatida bartaraf qilib, «Ijrochi»ga axborot beradi. Mazkur dalolatnoma shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.
- o) Ob'ektni qo'riqlanishini takomillashtirish, moddiy-tovar boyliklarni saqlanishi uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratadi va «Ijrochi»ga o'zining vazifalarini ijro etishi uchun ko'maklashadi.
- p) Ob'ekt hududida ta'mirlash ishlari yoki uni ijraga topshirish, ob'ekt joyini o'zgartirish (o'sha ma'muriy binoning ichida), yangisini vujudga kelishi (o'sha ma'muriy binoning ichida), qo'shimcha QYOT vositalari bilan jihozlanishi lozim bo'lgan taqdirda, «Ijrochi»ni 30 kun avval yozma ravishda ogohlantiradi.
- r) «Ijrochi» tomonidan vakolat berilmagan shaxslarga, QYOT vositalarini texnik ko'rikdan o'tkazishga ruxsat bermaydi.
- s) Ob'ektni har kuni TQPga topshirishdan kamida 3 soat oldin QYOT vositalarini sozligini, nazorat tariqasida tekshiradi, nosozlik aniqlanganda zudlik bilan xizmat ko'rsatadigan elektr ta'mirlovchini chaqiradi va bu borada «Ijrochi» ga xabar beradi.
- t) Ob'ektda ish vaqti tugaganidan so'ng, elektrmoslamalar va boshqa yong'in o'choqlarini yoqib qo'yilishiga yo'l qo'ymaydi. Lozim bo'lganda, qo'riqlash uchun to'sqinlik qiladigan va uni zudlik bilan bartaraf qilish iloji bo'lmagan noxush holatlar mavjud bo'lsa, mulkning saqlanishi uchun to'liq javobgarlik o'z zimmasida qoladi.

##### 11. «Ijrochichi» ning huquq va majburiyatlari.

- a) TQM qo'rig'iga topshiriladigan ob'ektning texnik mustahkamligini tekshirib, uning QYOT vositalari bilan jihozlanishiga qarab dalolatnoma tuzadi.
- b) Ob'ektning xavfsizligi yuzasidan QYOT vositalarini majburiy jihozlanish joyini belgilaydi.
- v) «Buyurtmachi»ga ob'ektning texnik mustahkam bo'lmagan joylariga QYOT vositalari bilan jihozlashni taklif etadi, bu taklif «Buyurtmachi» tomonidan bajarilmagan taqdirda bu haqida dalolatnoma tuzadi. Ushbu dalolatnoma shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.
- g) Ob'ektni «Buyurtmachi» hisobidan QYOT vositalari bilan to'liq jihozlaydi, uning ishlashini Buyurtmachiga o'rgatadi, telefon aloqasi orqali pultga ulaydi va kerakli bo'lgan pult ma'lumotini taqdim etadi.
- d) O'rnatilgan tartibda ob'ektni qo'riqqa olishda o'rnatilgan tartibda TQMga ulanishi hamda o'z vaqtida THG naryadini tashvish xabari bo'yicha yetib borishini ta'minlaydi.
- y) Ob'ekt qo'riqda bo'lgan vaqtda ob'ektga kirgan shaxsning qo'lga olish chorasini ko'radi.

bir tushgan soxta tashvish xabari bo'yicha dalolatnoma tuzadi, lozim bo'lganda «Buyurtmachi»ni chaqirib  
ni ochib ko'rikdan o'tkazadi va bu haqida dalolatnoma tuzadi, uning bir nusxasini «Buyurtmachi»ga  
adi.

Qo'riqlash xizmati uchun olinadigan tariflar o'zgartirishda «Buyurtmachi»ni xabardor qiladi.

6) Mazkur shartnomani to'xtatish yoki bir tomonlama bekor qilinishi quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- «Buyurtmachi» 2 oydan oshiq «qo'riqlash» xizmati uchun to'lovlarni to'lamaganligi;

- har qanday texnik nosozliklar, telefon raqami o'zgartirishda, telefon o'chirilganda, TQM joyi o'zgartirib  
ko'chirilganda;

- «Buyurtmachi» tomonidan shartnoma 10-bandi shartlari bajarilmaganda;

- ob'ektning texnik mustahkamligi talabga javob bermaganda;

- Telefon o'chirilganda yoki nosoz bo'lgan holda, elektr manbai o'chirilganda, TQM joyi o'zgartirishda, ob'ekt  
qo'riqqa qabul qilinmaydi, zudlik bilan bu to'g'risida «Buyurtmachi»ni yozma yoki telefon orqali xabardor  
etadi.

#### V bob. Tomonlarning javobgarligi.

12. Mazkur Shartnomaning 11-bandida ko'rsatilgan summaning **Buyurtmachi** tomonidan o'z vaqtida  
to'lanmaganligi holatida **Buyurtmachi Ijrochiga** har bir kechiktirilgan kun uchun to'lov summasining 0,4 foizi  
miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning miqdori Shartnoma bahosining 50 foizidan ortiq bo'lishi mumkin  
emas.

13. **Ijrochining** xodimi postda turmaganligi uchun **Ijrochi Buyurtmachiga** bir kunlik qo'riqlash xizmati  
narxining 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

14. **Ijrochi** mazkur Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi natijasida  
**Buyurtmachiga** yetkazilgan zarar uchun moddiy javobgar bo'ladi. Zararni qaytarish uchun, tergov yoki sud  
idoralarining ushbu holatlari yuzasidan chiqarilgan qarorlari asos bo'ladi.

15. Quyidagi holatlarda yetkazilgan moddiy-zararlar uchun «qo'riqlash» javobgar hisoblanmaydi:

a) tabiiy ofatlar oqibatida keltirilgan mulkiy zararlar uchun;

b) o'g'irlik yoki bosqinchilik yo'li bilan amalga oshirilgan harakatlarda pul o'g'irlanishi, qo'riqlanayotgan  
xonalarda Buyurtmachi qoldirmasligi kerak bo'lgan, belgilangan summadan oshib ketuvchi pul vositalari  
qoldirilib ketganida, hamda pul vositalari polda o'rnatilgan seyf yoki metall jovonda saqlanmagan hollarda  
qo'rilangan hollarda;

v) Xo'jalik organini ishchilarining shaxsiy mulki qo'riqlanayotgan xonada qolib ketganida;

g) Jinoyatchi tomonidan qo'riqlanayotgan xona ichida keltirilgan zarar uchun, agarda bunda jinoyatchi ushbu  
xonaga uni yopilishidan oldin kirgan bo'lsa va xonani qo'riqlanmaydigan vaqtda tark etgan bo'lsa;

d) pul boyliklarni belgilangan joyda saqlanmagan holatlarda ularni O'g'irlash yoki tajovuz sodir bo'lganda,

y) «Buyurtmachi» tomonidan signalizatsiya vositalari belgilangan vaqtda ishga tushirilmaganligi, ob'ektni  
qo'riqlashga topshirilmaganligi, yoki signalizatsiyaning nosozligi haqida «qo'riqlash»ga xabar berilmaganligi  
natijasida o'g'irlash, bosqinchilik yoki tajovuz yo'li bilan tovar-moddiy boyliklarga ziyon yetkazilganda,  
yoki ikki tomonlama tuzilgan dalolatnomada qo'riqlanayotgan ob'ektni texnik mustahkamligini oshirish  
bo'yicha talablar bajarilmasligi natijasida, tovar-moddiy boyliklarni o'g'irlanishiga sharoit yaratilganda.

#### VI bob. Nizolarni hal qilish tartibi.

16. Mazkur Shartnomani tuzish, ijro etish, o'zgartirish va bekor qilishda vujudga keladigan nizolar,  
kelishmovchilik va tortishuvlar ikki tomonlama kelishuvlar yo'li bilan hal etiladi, agarda o'zaro kelishuvlar yo'li  
bilan ular hal etilmasa, o'rnatilgan tartibda Xududiy Iqtisodiy sudiga beriladi.

#### VII-bob. Fors-major.

17. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar ushbu  
bajarmaslik Shartnoma tuzilgandan keyin paydo bo'lgan, yengib bo'lmaydigan kuch, ya'ni favqulodda va  
muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (fors-major) oqibati hisoblansa, javobgarlikdan ozod  
qilinadi.

18. Yengib bo'lmaydigan kuch holatiga havola qiluvchi Tomon boshqa Tomonni bunday holatlar boshlanganligi  
va tamom bo'lganligi to'g'risida ikki kun ichida yozma shaklda xabardor qilishi shart. Ushbu muddat ichida  
xabar bermagan Tomon mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi uchun javobgarlikdan  
ozod qilish asosi sifatida ko'rsatishga haqli emas.

19. Fors-major holatlariga suv toshqinlari, yer qimirlashi va boshqa tabiiy halokatlar, shuningdek epidemiyalar,  
yong'inlar, portlashlar, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mazkur Shartnoma ijrosiga bevosita ta'sir  
ko'rsatgan qarorlari kiradi.

20. Mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmas kuch holatlari amal qilg davrga mutanosib ravishda kechiktiriladi. Agarda fors-major uch oy davom etsa Tomonlar mazkur Shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqli.

### VIII bob. Yakuniy qoidalar.

21. Mazkur Shartnoma **Buyurtmachi** tomonidan tekshirish dalolatnomasida ko'zda tutilgan barcha takliflar va tavsiyalar bajarilib, tomonlar imzolangan keyin **2022 yilning 1-yanvar kundan** kuchga kiradi. Mazkur shartnomaning **2022 yilning 31-dekabr kuni**gacha amal qiladi.
22. G'aznachilikdan ro'yxatga olinishi shartligi va faqat g'aznachilik tomonidan tasdiqlangandan so'ng amalga oshiriladi. Shartnoma elektron shaklda onlayn ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.
23. Mazkur Shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda tuzilganda hamda **Buyurtmachi** va **Ijrochining** vakillari tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiydir.
24. **Buyurtmachi** ob'ektni qo'riqlashni rad qilish yoki mazkur Shartnomani bekor qilish (bir yil muddat to'liq o'tgandan so'ng) to'g'risida **Ijrochiga bir oy** oldin yozma ravishda ma'lum qiladi.
25. **Buyurtmachi** mazkur Shartnomani bekor qilish haqida **Ijrochiga** Shartnoma muddati tugashidan **30 kun** oldin ma'lum qilmasa, xuddi shu shartlarda mazkur **shartnoma muddati yana bir yilga uzaytirilgan** hisoblanadi.
26. **Buyurtmachi** shartnomani muddati tugashidan oldin voz kechsa, **Buyurtmachi** uch kun muddat ichida qo'riqlash xizmatlarini bekor qilishga bog'liq xarajatlarni qoplash uchun "qo'riqlash"ning hisob raqamiga mablag' o'tkazadi.
27. Ob'ektning xususiyatidan kelib chiqib **Tomonlar** mazkur Shartnomaga, qonun hujjatlariga muvofiq huquq va majburiyatlarini nazarda tutuvchi qo'shimcha bandlar kiritishlari mumkin.

### IX-bob. Tomonlarning yuridik manzillari va rekvizitlari.

#### «I J R O Ch I»

O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi  
Buxoro viloyati Qo'riqlash boshqarmasi.  
Manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko'chasi 10-uy  
H.R. 21 596 000 203 976 980 001  
MFO: 00017 INN: 202 623 032  
Bank nomi: Markaziy bank Buxoro viloyati  
boshqarmasi



Sh. N.I. Sa'dullaev

Xizmat joyi: 21-00-00-00-30-11  
Boshqarma YUG boshlig'i

N.I. Sa'dullaev

Boshqarma YUG bosh yuriskonsulti

M.U. Suvonov

Qorovulbozor tuman QB boshlig'i

Sh.Sh. Ashurov

#### «B U Y u R T M A Ch I»

Qorovulbozor tuman Xalq ta'lim bo'limi

Manzili: J. Bozor Yulida

H.R.: 10003286006232709210007524

MFO: 0004 INN: 201057096

J. Bozor Yulida

X.r. 23402660300100001010

Bank nomi: Markaziy bank

MFO: 00014

STIR: 201122989

Qorovulbozor tuman Xalq ta'lim bo'limi mudiri

D. Raxmatova

M.P.

Bosh hisobchi: